



DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA ELEKTRON SAVDOLARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tilyayev Xasan,

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
public finance yo`nalishi magistri.*

Tel: 97 790 77 90,

Email: x.tilyaev@airi.uz

***Anatatsiya.** Mazkur maqolada davlat xaridlari tizimida elektron savdolarini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari chuqur va tizimli tahlil etiladi. Xususan, xorijiy mamlakatlar va O`zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil asosida o`rganilib, ularning konseptual yondashuvlari, institutsional mexanizmlari hamda amaliy natijalari solishtiriladi. Shuningdek, ilg`or xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari aniqlanib, ular asosida aniq, amaliyotga yo`naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda elektron tender platformalarining funksional imkoniyatlari, ularning shaffoflikni ta`minlash, raqobatni kuchaytirish va korrupsiya xavflarini kamaytirishdagi o`rni alohida yoritiladi.*

***Аннотация.** В статье представлен глубокий и системный анализ приоритетных направлений развития электронных торгов в системе государственных закупок. В частности, на основе сравнительного анализа изучается опыт зарубежных стран и Узбекистана, сравниваются их концептуальные подходы, институциональные механизмы и практические результаты. Также выявляются возможности адаптации передового зарубежного опыта к местным условиям и на их основе разрабатываются конкретные, практико-ориентированные предложения и рекомендации. Особое внимание уделено функциональным возможностям электронных тендерных площадок, их роли в обеспечении прозрачности, укреплении конкуренции и снижении коррупционных рисков.*



Abstract. *This article provides a thorough and systematic analysis of the priority areas for the development of electronic trading in the public procurement system. In particular, the experience of foreign countries and Uzbekistan is studied on the basis of comparative analysis, their conceptual approaches, institutional mechanisms and practical results are compared. Also, the possibilities of adapting advanced foreign experience to local conditions are identified, and on their basis, specific, practice-oriented proposals and recommendations are developed. The study specifically highlights the functional capabilities of electronic tender platforms, their role in ensuring transparency, strengthening competition and reducing the risks of corruption.*

Kalit soʻzlar: *Davlat xaridlari tizimi, elektron savdolar, elektron tender platformalari, davlat xaridlarini raqamlashtirish, ochiq va shaffof tenderlar, raqobatni kuchaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish, xorijiy tajriba, qiyosiy tahlil, raqamli texnologiyalar, elektron hujjat aylanishi, onlayn monitoring, maʼlumotlar tahlili (big data), innovatsion yechimlar, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, institutsional islohotlar, davlat boshqaruvi samaradorligi, jamoatchilik nazorati, ochiq maʼlumotlar ekotizimi.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, avvalo, davlat xaridlari tizimi orqali namoyon boʻladi. Davlat budjetidan, shuningdek, budjetdan tashqari jamgʻarmalar hisobidan moliyalashtiriladigan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish jarayonining shaffof, adolatli va samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va korrupsiya omillarini bartaraf etish yoʻnalishida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismidan biri bu — davlat xaridlari tizimida elektron savdolarini keng joriy etish va rivojlantirish hisoblanadi. Elektron savdolar davlat buyurtmachilari va tadbirkorlar oʻrtasidagi munosabatlarni zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshirish imkonini berib, ochiqlik, tezkorlik va raqobat darajasini keskin oshiradi. Shu bois “Davlat xaridlari tizimida elektron savdolarini



rivojlantirish yo'llari" mavzusi bugungi kunda nafaqat iqtisodchilar, balki davlat boshqaruvi, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari uchun ham nihoyatda dolzarbdir.2. Davlat xaridlari tizimi va unda elektron savdolar o'rni2.1. An'anaviy xaridlar kamchiliklariAn'anaviy, ya'ni qog'oz shaklida amalga oshiriladigan davlat xaridlari quyidagi muammolar bilan tavsiflanadi. Hujjat aylanishi sekinligi va byurokratik kechikishlar, ma'lumotlarning yopiq bo'lishi tufayli korrupsiya xavfi yuqoriligi. Tenderlarda faqat cheklangan doiradagi yetkazib beruvchilarning ishtirok etishi, xarid jarayonini monitoring qilish va tahlil qilishning murakkabligi, inson omili ta'siri va xatolik ehtimolining yuqoriligi Mazkur kamchiliklar nafaqat budget mablag'laridan samarasiz foydalanishga olib keladi, balki tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlarida ishtirok etish istagini ham pasaytiradi.

Elektron savdolar afzalliklari Davlat xaridlari tizimida elektron savdolarini joriy etish quyidagi ustunliklarni ta'minlaydi. Shaffoflik, barcha e'lonlar, natijalar va shartnomalar ochiq axborot maydonida joylashtiriladi. Raqobatning oshishi respublika bo'ylab va hatto xalqaro miqyosdagi yetkazib beruvchilar ishtiroki uchun qulay sharoit yaratiladi. Tezkorlikda hujjatlarni yozish, yuborish, ko'rib chiqish jarayonlari onlayn amalga oshiriladi. Xarajatlarni tejashda qog'ozbozlik va ortiqcha tashkiliy xarajatlar qisqaradi, byudjet mablag'lari tejab qolingan bo'ladi. Monitoring va tahlil qulayligi bu barcha ma'lumotlar yagona elektron bazada jamlanadi, tahliliy hisobotlar avtomatik shakllantiriladi.

O'zbekiston davlat xaridlari tizimida elektron platformalarO'zbekistonda davlat xaridlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilib, elektron savdo maydonchalari orqali tenderlar, auksionlar va boshqa savdo turlari o'tkazib kelinmoqda. Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portallari, elektron platformalar, savdo tizimlari joriy qilingan bo'lib, ularda xarid e'lonlari, tender hujjatlari, ishtirokchilar ro'yxati, g'oliblar haqida ma'lumotlar, tuzilgan shartnomalar ochiq e'lon qilinmoqda. Bu esa elektron savdolarini yanada kengaytirish zaruratini va imkoniyatlarini namoyon etadi. Elektron savdolarini rivojlantirish zarurati va asosiy omillardan biri, shaffoflik va korrupsiyani kamaytirish. Elektron savdolar eng avvalo, korrupsion omillarni cheklash va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga



xizmat qiladi. Har bir xarid bo'yicha ma'lumotlarning ochiq bo'lishi, ishtirokchilar soni va takliflarning ko'rinishi, tanlov mezonlarining aniq belgilanishi korrupsion kelishuvlar uchun joy qoldirmaydi yoki ularni keskin qisqartiradi. Raqobatni kuchaytirish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, elektron savdo maydonchalarida mamlakatning istalgan hududidan, hatto boshqa davlatlardan ham yetkazib beruvchilar ishtirok etishi mumkin. Bu esa takliflar sonini ko'paytiradi, narxlar tushishiga olib keladi, mahsulot sifati oshishiga xizmat qiladi. Natijada davlat kamroq mablag' sarflab, yaxshiroq sifatdagi tovar va xizmatlarni xarid qilishi mumkin bo'ladi. Tadbirkorlar uchun bu teng sharoit yaratish, raqamli platformalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun ham davlat buyurtmalariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Qog'ozbozlik va ortiqcha tashkiliy talablarning kamayishi, ro'yxatdan o'tish va hujjat topshirish jarayonining onlayn amalga oshirilishi yangi ishtirokchilarni jalb etadi. Natijada sog'lom raqobat shakllanadi, monopolistik kayfiyatlar cheklanadi, tadbirkorlik muhitining jozibadorligi oshadi. Elektron savdolar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar bu texnik va infratuzilma muammolari hisoblanadi. Elektron savdo tizimlarini samarali ishlashi uchun barqaror internet tarmog'i, zamonaviy server va texnik jihozlar, axborot xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanishi zarur. Ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, platformalarning texnik nosozliklari, tizimning sekin ishlashi tadbirkorlar va buyurtmachilar uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Huquqiy-me'yoriy bazadagi kamchiliklar elektron savdolarini tartibga soluvchi qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirib borilishi kerak. Amaliyotda esa ayrim normalarning bir-biriga mos kelmasligi, hujjatlarni rasmiylashtirish tartibining murakkabligi, shikoyat va nizolarni ko'rib chiqish mexanizmlarining sustligi kabi muammolar uchrashi mumkin. Bu esa ishtirokchilar uchun huquqiy noaniqliklar keltirib chiqaradi. Kadrlar malakasi va raqamli savodxonlik darajasi, elektron savdolar tizimidan samarali foydalanish uchun davlat organlari xodimlari, tadbirkorlik subyektlari vakillari raqamli savodxonlikka ega bo'lishi, elektron platformalarda ishlash ko'nikmalarini puxta egallashi kerak. Amaliyotda esa ba'zan tizim imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaslik, hujjatlarni noto'g'ri yuklash, texnik



talablarni tushunmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Tadbirkorlarning ishtirok faolligi pastligi, ba'zi tadbirkorlar elektron savdolarda ishtirok etish tartibini yetarli darajada bilmasligi, tizimga nisbatan ishonch past bo'lishi, o'z imkoniyatlarini past baholashi sababli davlat xaridlarida qatnashmaydi. Natijada raqobat zarur darajada shakllanmaydi va elektron savdolarning to'liq potentsiali namoyon bo'lmaydi.

Davlat xaridlari tizimida elektron savdolarni rivojlantirish yo'llari elektron platformalarni takomillashtirish va yagona axborot tizimi yaratish. Birinchi navbatda, barcha davlat xaridlarini yagona elektron axborot tizimi doirasida birlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda barcha buyurtmachilar va yetkazib beruvchilar yagona ro'yxatdan o'tish tizimiga ega bo'lishi xaridlarning barcha turlari **(tender, auktsion, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar va hokazo)** yagona platforma orqali amalga oshirilishi ma'lumotlar bazasini integratsiya qilish **(soliq, bojxona, bank tizimlari bilan bog'lash)** ta'minlanishi kerak. Bu jarayon texnik qulaylik yaratish bilan birga, ma'lumotlar takrorlanishini kamaytiradi va nazoratni osonlashtiradi. Huquqiy-me'yoriy bazani soddalashtirish va moslashtirish elektron savdolarni samarali rivojlantirish uchun ortiqcha byurokratik talablarni qisqartirish, ishtirokchilar uchun aniq va sodda qoida va tartiblarni belgilash, shikoyatlar ko'rib chiqish mexanizmini tezkor va adolatli qilish zarur. Qonunchilik hujjatlari amaliyotdan kelib chiqib muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishi, xalqaro standartlar va ilg'or tajriba hisobga olinishi lozim. O'quv-trening dasturlarini kengaytirish davlat xaridlari sohasida faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilari, mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillari, tadbirkorlar uchun maxsus seminar, trening va onlayn kurslarni tashkil etish muhim. Ularda elektron platformalarda ishlash amaliyoti, hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, ishtirokchilar huquq va majburiyatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari yuzasidan chuqur bilim va ko'nikmalar berilishi kerak. Raqobatni oshirish va kichik biznesni rag'batlantirish va kichik biznes subyektlarining elektron savdolarda ishtirokini kuchaytirish uchun ularga alohida kvotalar yoki imtiyozlar berish, boshlang'ich badallar yoki kafolat pullarini kamaytirish, axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish kabi choralar ko'rilishi mumkin. Bundan tashqari, kichik biznes uchun moslashtirilgan maxsus



ko'mak va maslahat markazlari tashkil etish ham maqsadga muvofiq. Ochiqlik, monitoring va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish elektron savdolarining asosiy maqsadlaridan biri — jamiyat oldida ochiqlikni ta'minlashdir. Shu bois barcha xaridlar bo'yicha ma'lumotlar ochiq portallarda muntazam e'lon qilinishi jamoatchilik, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari uchun qulay monitoring mexanizmlari yaratish shubhali bitimlar bo'yicha tezkor signal berish tizimini joriy etish. Elektron savdolar nufuzini oshiradi va jamiyat ishonchini mustahkamlaydi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash istiqbollari, kelajakda davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirishda sun'iy intellekt yordamida narxlar va takliflarni tahlil qilish, risklarni baholash. Big data (katta ma'lumotlar) texnologiyalari asosida xaridlar bo'yicha keng ko'lamlı tahlillar olib boorish, blokcheyn texnologiyasi orqali shartnomalar va tranzaksiyalarning o'zgarmas va ishonchli reyestrini yuritish kabi innovatsion yechimlardan foydalanish mumkin. Bu nafaqat shaffoflikni oshiradi, balki inson omilini kamaytirib, tizimning ishonchliligini yanada kuchaytiradi. Xulosa va takliflar qilib aytganda, davlat xaridlari tizimida elektron savdolarini rivojlantirish budjet mablag'laridan samarali foydalanish, korrupsiya va yashirin kelishuvlarni cheklash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat buyurtmalariga chiqish imkoniyatini kengaytirish uchun zaruriy shartdir. Maqola yakunida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Davlat xaridlarini amalga oshirishda barcha buyurtmachilar uchun elektron platformalardan foydalanishni majburiy etib belgilash va istisnolar doirasini imkon qadar toraytirish. Elektron savdo tizimlarini texnik va dasturiy jihatdan modernizatsiya qilish, axborot xavfsizligini yanada kuchaytirish. Davlat xaridlari sohasida ishlovchi mutaxassislar hamda tadbirkorlar uchun doimiy o'quv-trening dasturlarini yo'lga qo'yish. Kichik biznes subyektlari uchun alohida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etib, ularning elektron savdolarda ishtirokini rag'batlantirish. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining davlat xaridlari ustidan nazoratini kuchaytirish, ochiq ma'lumotlar bilan ishlashni yengillashtirish. Uzoq muddatli istiqbolda sun'iy intellekt, big data va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish. Shu yo'nalishlarda tizimli ishlar



olib borilishi natijasida davlat xaridlari tizimida elektron savdolar yanada rivojlanib, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi va davlat boshqaruvi samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (oxirgi tahriri bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlari (davlat xaridlari, elektron tenderlar, onlayn savdo platformalarini joriy etish va rivojlantirishga oid hujjatlar).
4. Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali – dxarid.uz (elektron tenderlar va davlat xaridlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar, me’yoriy-huquqiy baza, yo‘riqnomalar).
5. Jahon banki (World Bank). Public Procurement, e-Procurement va davlat xaridlarini raqamlashtirish bo‘yicha hisobotlar va tahliliy materiallar.